



## XALQARO TA'LIM TURIZMI BOZORI VA UNGA INTEGRATSIYALASHISH OMILLARI

**Jahongirov Kamoliddin Asomiddin o'g'li**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

ORCID: 0000-0002-1128-6986

[kamoliddin6564@gmail.com](mailto:kamoliddin6564@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim turizmining holati, mamlakatimizni ta'lim turizmi bozoridagi o'rni va ahamiyati, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari va qarashlarining qiyosiy tahlili, xalqaro darajada integratsiyalash yo'nalishlari, ta'lim turizmini rivojlantirishning ijobiy jihatlari, xorijiy va mahalliy fuqarolarning ta'lim olish uchun tashrifini statistik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim turizmi, fuqaro, samara, o'qitish, muassasalar, sayyohlar, sayohat, noiqtisodiy maqsad, bandlik, integratsiya, talaba, madaniy obyekt, turistik obyekt.

## РЫНОК МЕЖДУНАРОДНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА И ФАКТОРЫ ЕГО ИНТЕГРАЦИИ

**Жахонгиров Камолiddин Асомиддинович**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье проведен сравнительный анализ состояния образовательного туризма, его места и значения на рынке образовательного туризма нашей страны, научных исследований и взглядов зарубежных и отечественных ученых на эту тему, направлений интеграции на международном уровне, положительных аспектов развития образовательного туризма, статистический анализ образовательных посещений иностранных и отечественных граждан.

**Ключевые слова:** образовательный туризм, гражданин, обучение, учреждения, туристы, путешествия, неэкономическая цель, занятость, интеграция, студент, культурный объект, туристический объект.

## INTERNATIONAL EDUCATIONAL TOURISM MARKET AND ITS INTEGRATION FACTORS

**Jahongirov Kamoliddin Asomiddin oglu**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** This article carried out a comparative analysis of the state of educational tourism, the place and importance of our country in the market of educational tourism, scientific research and views of foreign and domestic scientists in this regard, directions of integration at the international level, positive aspects of the development of educational tourism, statistical analysis of visits of foreign and domestic citizens for education.

**Keywords:** educational tourism, citizen, teaching, institutions, tourists, travel, non-economic purpose, employment, integration, student, cultural object, tourist object.

## Kirish.

Hozirgi kunda turizm jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bo'lib, ushbu sohaga e'tibor yildan-yilga tobora kuchayib bormoqda va mutaxassislar tomonidan "kelajak industriyasi" sifatida e'tirof etilmoqda. mamlakatimiz turizmni rivojlantirishda har qanday xorijiy mamlakatdan qolishmaydigan imkoniyatlarga ega ekanligi, shu bois ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yildan boshlab, hozirgi kunga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm turlarini tashkil toptirish, infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'z ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Xorijiy davlatlar pedagogikasi va ta'lim siyosatini o'rganar ekanmiz, bu sohaga alohida ahamiyat qaratilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, ta'lim turizmi yo'nalishidan Rossiya va Yevropada faol foydalanilmoqda. Turli xil ta'lim tizimlarida keng e'tirof etilmoqda va innovator pedagoglar tomonidan yuqori samarali o'qitish texnologiyasi sifatida baholanmoqda.

Ta'lim turizmi deganda - o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida belgilangan reja va vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan bilim turlarini boshqa davlatlarda hamkorlik asosida olish tushuniladi (Boymurodov, 2019).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2022) e'lon qilinib, farmonga 1-ilovadagi 35-maqsad: "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish. To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlariga keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, belgilangan bo'lib, bularning ichida ta'lim turizmi sohasida faoliyat olib boradigan fuqarolar ham mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2023) qabul qilindi. Ushbu farmonga 1-ilovadagi 58-maqsad, - O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, - deb nomlangan bo'lib, ushbu maqsad doirasida, Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish, belgilangan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmon (2023) ga 1-ilovadagi 59-maqsad, - Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, deb nomlangan bo'lib, ushbu maqsadda, - O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish, vazifalari belgilangan.

Xalqaro ta'lim turizmi bozori bugungi kunda global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, xorijiy davlatlarda ta'lim olishni istagan talabalar va bu jarayonda ishtirok etuvchi ta'lim muassasalari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlarni qamrab oladi. Ta'lim turizmi xalqaro darajada o'sib borayotgan trend bo'lib, u talabalarga xorijiy tajriba orttirish, til o'rganish va global tarmoqlar bilan aloqalar o'rnatish imkonini beradi.

Xalqaro ta'lim turizmi bozorining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, rivojlanayotgan davlatlarda talabalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 6 milliondan ortiq talabalar o'z mamlakatidan tashqarida ta'lim olishgan. Talabalar yuqori sifatli ta'limni taklif etuvchi mamlakatlarni afzal ko'rishmoqda (masalan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya). Universitetlar va mamlakatlar xalqaro talabalarni jalb qilish uchun kuchli raqobatlashadi. Shu sababli, stipendiyalar, qulay vizalar va yashash sharoitlari taklif etiladi. Ta'lim turizmi qisqa muddatli kurslar (til o'rganish, malaka oshirish), bakalavriat, magistratura va doktorantura kabi segmentlarga bo'linadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy tadqiqotchi B. Ritchi o'zining "Ta'lim turizmini boshqarish" asarida quyidagi ta'rifni beradi: "Ta'lim turizmi – bu asosiy yoki ikkinchi darajali maqsadi ta'lim va tahsil olish bo'lgan ekskursant yoki tunab qoluvchi sayyohlarning faoliyatidir". Boshqacha qilibaytganda, sayohatning asosiy maqsadi ta'lim bo'lgan ma'lum bir segment mavjud. Tadqiqotchi ushbu segmentga maktab ekskursiyalarini, til maktablari va universitetlarda o'qishni nazarda tutadi. Boshqa bir segment uchun turizm asosiy, ta'lim yoki tahsil olish esa sayohatning ikkinchi darajali maqsadi hisoblanadi. Bu erda muallif ekologik va madaniy turizmni, shuningdek, ma'rifiy turizmni kiritadi (Ponomareva, 2015).

Xorijiy ilmiy manbalarning aksariyatida ta'lim turizmi konsepsiyasini ta'riflashda faollik yondashuvi asosiy rolni o'ynashini aytish mumkin. "Ta'lim turizmi" atamasi "madaniy turizm", "ta'lim turizm", "madaniy va ekskursion-kognitiv turizm" kabi turizm turlaridan kelib chiqqan (Lunin, 2009).

A.R.Lebedevning (2012) "Ta'lim turizmi iqtisodiy kategoriya sifatida" deb nomlangan maqolasida, ta'lim turizmitushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar bir tomonlama yondashuvga ega, ya'ni turistik xizmatni alohida ishlab chiqarish bosqichlari aks ettirilmagan, deb ta'niqid qilingan. Ular fikricha, ta'lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lamda o'z ichiga oladi. Bu ta'lim turizmi konsepsiyasini belgilashga iqtisodiy yondashuv deb ataladi.

Turizmning ushbu turining uzoq vaqt mavjudligini tasdiqlovchi ko'plab dalillar mavjud: V. P. Titov (2016) va D. A. Denisova (2015) o'z asarlarida ta'lim turizmi tushunchasini tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar. Biroq, turistik va axborot yo'nalishlari sifatida alohida hududlarni (ob'ektlar, komplekslar) jalb qilish sabablari turlicha.

Masalan, Solomin va Pogodina (2007) o'quvchilar ta'lim maqsadida tashrif buyuradigan hududlarning axborot, ekologik, ijtimoiy, estetik va boshqa qadriyatlariga e'tibor berishadi. Ta'lim turizmi resurslarining parametrlari orasida ular imkoniyatlar, barqarorlik, ishonchlilik va mavjudlik kabi xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi

I.B.Zorin, V.A.Kvartalnov (2003) ta'lim turizmini turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta'lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror ob'yektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o'rganishga bo'lgan boshqa ehtiyojlarini qondirish yo'naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksi deb ta'riflaydilar. O'z navbatida bu ta'lim turizmi belgilashga ehtiyojga yo'naltirilgan yondashuv sanaladi.

Yana bir yondashuv-dasturiy yondashuvni ko'rib chiqamiz. Uning xususiyati ta'lim turizmini joriy ta'lim dasturlari doirasida ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o'quv sayohatlari tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiluvchi mualliflarning ta'rifida aks etadi (Solomin, 2007).

"Ta'lim turizmi" tushunchasining mazmuni va mohiyatini ochib berishda, uning turizm turlari hamda shakllari tizimida tutgan o'rnini, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiyotidagi ahamiyatini baholashda va boshqa nazariy metodologik jihatlariga aniqlik kiritishda ta'lim turizmini alohida turlarga tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi (Ibragimova, 2021).

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar, xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim turizmini integratsiyalash bo'yicha muammolar analitik tahlil qilindi va sharhlardan foydalanilgan. Ushbu ma'lumotlar ta'lim turizmini rivojlantirishda xorijiy fuqarolarning mamlakatimizga tashrifini oshishiga va yoshlarimizning ta'lim olish uchun bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Maqolada olingan ma'lumotlar asosida mamlakatimiz ta'lim turizmi jozibadorligini oshirishga ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda ta'lim turizmini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va xalqaro darajada integratsiyalash o'tkir zarurat. Uning dolzarbligini tadqiqotni bajarish jarayonida amalga oshirilgan nazariy hamda amaliyot tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda ilmiy jihatdan asoslab berishga urinib ko'rdik.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ta'lim turizmini rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni umumta'lim maktablari o'quvchilari, universitet talabalarining ta'lim safari, ekskursiyalari asosida ta'lim turizmining asosini ishlab chiqish kerak.

Ta'lim turizmining uchta yo'nalishi yoki uchta bozori mavjud (Sa'dullayeva, 2020):

- tillarni o'rganish safari;
- sport va o'quv safarlari;
- kasbiy tayyorgarlik.

Shu bilan birga yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim turizmini tavsiflash va uni turlarini aniqlab olish lozim (1-jadval).

1-jadval

### Ta'lim turizmining tavsiflanishi va turlari

No	Ta'lim turizmi tavsiflanishi	Tavsiflanish ko'rinishlari
1.	Ishtirokchilar tarkibiga ko'ra	maktab o'quvchilari, talabalar, magistr, PhD, mutaxassislar, sayyohlar
2.	Maqsadiga ko'ra	Umumiy, ko'nikmalarni rivojlantirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim olish, ta'lim berish, aralash (ta'lim olish hamda ta'lim berish)
3.	Mavzusiga ko'ra	Keng qamrovli, atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, texnikaviy, kasbiy, malakaviy
4.	Ishtirokchilar soniga ko'ra	Individual, guruh
5.	Shakllantirilganligiga ko'ra	maxsus tashkil etilgan, tashkillashtirilmagan
6.	Faoliyatning tashkil etilish	dialog, virtual, ilmiy-amaliy anjumanlar, innovasion yarmarkalar
7.	Hududiy miqiyosiga ko'ra	Mahalliy, hududiy, xalqaro
8.	Sayohat turlari	Til o'rganish bo'yicha turlar, sport bo'yicha turlar, Kasb-hunar o'rganish, malaka oshirishga yo'naltirilgan turlar
9.	Moliyalashtirish manbalariga ko'ra	Davlat grantlari, o'z mablag'lari hisobidan, Nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan
10.	Muddatiga ko'ra	Qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli
11.	Ishtirokchilar yoshiga ko'ra	16 yoshgacha, 16-25 yoshgacha, 25-45yoshgacha, 45-65yoshgacha, 65yosh va undan yuqorilar
12.	Ko'lamiga ko'ra	Ichki, kiruvchi, chiquvchi

**Manba:** Ibragimova m. (2021) *Structure and classification of educational tourism services. Innovations in economy journal, No4, manbasi asosida tayyorlandi.*

Jadval asosida aytish mumkinki, kelajakda ta'lim turizmiga oid tadqiqotlarni davom ettirishda yuqoridagi ko'rsatkichlardan foydalanish sohadagi kamchiliklarni aniq tahlil qilish imkonini yaratadi. Kuzatuvlar natijasida aytish mumkinki yoshlarning ta'lim turizmiga bo'lgan ehtiyoji juda yuqoridir. Buning asosiy sababi sifatida xorij davlatlaridagi rivojlanish darajasining yuqoriligi, turistik obyektlarning ko'pligi, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ta'kidlash mumkin.


Masalan, muayyan oliy ta'lim muassasasi yo'nalishidan kelib chiqib, til, axborot texnologiyalari, san'at sohasi, arxeologiya, tarixni o'rgatishga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqishi kerak. dastur rejaları asosan qishgi va yozgi ta'til oralig'ida bajarilishini ko'zda tutsa,

yanada foydali bo'ladi. Ta'lim turizmi bo'sh vaqtdan unumli foydalangan holda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni bilim bilan birlashtiradigan turizm turi. Barcha fanlarni amaliy o'rganish birlamchi maqsad bo'lsa, unga erishtiruvchi vositalar bu ta'tilning ikkinchi darajali maqsadi bo'lishi mumkin. Ta'lim turizmi safar sababi va mavzusiga qarab farq qilishi mumkin. Ekskursiya dam olish elementlari bilan ta'limni o'z ichiga olsa, til kurslari, chet el o'quv yurtlarida o'qish, ko'rgazma va muzeylarga tashrif, tarixiy qadamjolar, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, seminar va konferensiyalar sof ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalari, universitet va institutlar, til o'rgatuvchi maktablarda ta'lim olish, turli ta'lim muassasalariga uyushtiriladigan sayohatlar ta'lim turizmining asosiy o'rganish sohasi bo'lib hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ta'riflarga ko'ra, ta'lim olish va kasbiy tayyorgarlikni nazarda tutuvchi sayohatlar quyidagi ko'rinishdagi faoliyatlarda aks etadi:

- qisqa muddatli kurslarda tahsil olish;
- rasmii kurslarda qatnashish orqali kasbiy malaka kompetensiyalarini egallash.

Bunda "ta'lim turizmi" tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo'lgan bir yilgacha muddatda ma'lum bir yo'nalishda sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi (Maxmudova, 2022). Xalqaro darajada universitetlarning o'rni va turistik obyektlarning tan olinishi undagi ta'lim turizmi hissasini yanada oshirmoqda (1-rasm).



**1-rasm. O'qish maqsadida kelgan xorijlik fuqarolar soni, ming kishi**


**Manba:** <https://siat.stat.uz/reports-filed/1044/line-data>

Ma'lumotlar asosida aytib o'tish mumkinki mamlakatimizda Covid-19 ning ta'siri albatta sezilarli darajada bo'ldi. 2023-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish 357,5 %ni tashkil etmoqda ya'ni ta'lim turizmida o'qish uchun kelgan xorij fuqarolar soni 2023-yilda 3,5 marta ko'pdir.

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi, -deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalarini imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin (Muhammadsolih, 2022). Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.



Fuqarolarimizning ta'lim turizmiga ehtiyojlari yuqoriligi ularga kelajakda xalqaro darajada integratsiyalashuvni jada amalga oshirish zarurligi asoslamoqda (2-rasm).



**2-rasm. 2023-yilda yanvar-iyun oylarida ta'lim turizmini amalga oshirish uchun ketgan fuqarolarimizning mos ravishda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi, ming kishi**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda xizmat safarlari maqsadida chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolari soni 6,8 ming nafar (respublikadan chiqib ketganlar umumiy sonidan 0,3 % i), davolanishga – 15,4 ming nafar (0,8 %), o'qish uchun – 19,5 ming nafar (1,0 %), bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish uchun – 248,3 ming nafar (12,2 %) hamda qarindoshlarni yo'qlashga – 1 738,6 ming nafarni (85,7 %) tashkil etgan.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida o'zbekistonliklar o'qish maqsadida ko'proq Tojikistonga borayotgani ma'lum bo'ldi. Bu haqda Statistika agentligi xabar berdi. Qayd etilishicha, 30,4 ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'qish maqsadida chet elga borgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 952 nafarga yoki 3,2 % ga oshgan. Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida o'qish maqsadida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatlar bo'yicha quyidagicha:

- Tojikiston — 11 409 nafar
- Rossiya — 7 301 nafar
- Qirg'iz Respublikasi — 2 845 nafar
- Turkiya — 2 195 nafar
- Janubiy Koreya — 1 839 nafar
- Qozog'iston — 1 372 nafar
- Buyuk Britaniya — 693 nafar
- Xitoy — 672 nafar
- AQSh — 486 nafar
- BAA — 295 nafar
- Boshqa davlatlar — 1 292 nafar.

Bizning nazarimizda ta'lim turizmini rivojlantirish muammolariga e'tiborni kuchaytirish, ushbu yo'nalishda mamlakatimizda xalqaro darajada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ushbu sohani turizmning eng tez sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan turlaridan biriga aylantirish zarurati quyidagilar bilan belgilanadi:

- ta'lim turizmining dunyo mamlakatlari bo'yicha, ayniqsa rivojlangan hamdarivojlagayotgan mamlakatlar bo'yicha turizmning eng progressiv va istiqbolli turlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotda mustahkam mavqega ega ekanligi;
- dunyo mamlakatlari bo'yicha ta'lim turizmi xizmatlariga talabning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi va buning amaliy natijasi sifatida ta'lim turizmi xizmatlari bozorining kengayib borish tendensiyasining kuchayib borishi;
- mamlakatda ta'lim turizmi xizmatlarini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganligi hamda turli xil choralar qo'llash orqali ularni ishga tushurish mumkinligi;
- ta'lim turizmi xizmatlarining mamlakat aholisi intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishdagi alohida o'rindan unumli foydalanish zarurligi;
- ta'lim turizmining inson iqtisodiy faoliyatining alohida turi sifatida yuqori daromad keltirish qobiliyati va uni tez sur'atlar bilan rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini barqaror o'stirish mumkinligi;
- xalqimizda azal-azaldan ilmu-fanga, ta'limga qiziqishning, ehtiyojning kuchliligi va uni qondirish jamiyatning, davlatning muhim vazifasi ekanligi;
- kengaytilgan takror io'lab chiqarishda barcha resurslar tarkibida inson kapitali rolining uzluksiz o'sib borayotganligi, undan o'rinli foydalanishning har bir mamlakat uchun o'tkir zaruratga aylanganligi;
- jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mintaqalararo hamda mamlakatlararo iqtisodiy-ijtimoiy, jumladan turizm sohasida, madaniyat sohasida va boshqa muhim sohalarda iqtisodiy hamkorlikning intensiv tarzda rivojlanib borayotganligi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, ta'lim innovatsion klasteri asosida ta'lim turizmini integratsiyalash uchun quyidagi mexanizmni taklif etamiz:

- talabalarining bilim ehtiyojlarini qondirish maqsadida hamda qobiliyatini amalda namoyon etishga mo'ljallangan ta'lim resurslarini muayyan hudud (ob'ekt, majmua, korxonalar, oromgoh) da turistik ob'ekt sifatida belgilash;
- tabiiy ekologik muhitidan foydalangan holda, ekoturizm va ta'lim turizmini birlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- imkoniyatlar ko'rsatkichi serqirra hududning turizm va ta'lim salohiyatini oshirish;
- sayyohlarning maksimal soni va mavsumiy tashriflarni inobatga olgan holda, tur agentlik va tur firmalar o'rtasida manfaatli hamkorlik o'rnatish; (ya'ni firma tomonidan bir martalik ish bilan ta'minlanadigan gid tarjimonga sarflanadigan xarajat o'rniga, tanlov asosida tanlab olingan volontyor talabalar xizmatidan foydalanish. Natijada firma moliyaviy, oliy ta'lim muassasi talabasi malakaviy jihatdan o'zaro samaraga erishadi) (Boymurodov, 2019);
- turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'mita saytini talabalar tomonidan aks etgan lavhalar bilan boyitish;
- geografik hudud landshafti, tabiat estetikasi bilan tanishtirish, hudud manzarasini tasvirlash jarayonida nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- arxitektura yodgorliklari, tarixiy ziyoratgohlar, tipik qishloq aholi punktlari, me'moriy majmualar, tarixiy markazlar, amaliy san'at namunalari tanishtirishda ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, okeanariumlar orqali o'tuvchi manzillarni ishlab chiqish;
- xalqaro davlat grantlar sonini oshirish orqali talabalarning ta'lim olishlariga davlat tomonidan imkoniyatlar ajratib berish.

**Adabiyotlar/ Лумература/ Reference:**

Farmon (2022) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараqqiyot стратегияси тўғ‘рисида”ги Фармони.

Farmon (2023) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғ‘рисида”ги Фармони

Kamoliddin Jahongirov O‘zbekistonning turkiy mamlakatlar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarida ta‘lim turizmining o‘rni // SAI. 2024. №Special Issue 46. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonning-turkiy-mamlakatlar-bilan-madaniy-i-tisodiy-alo-alarida-talim-turizmining-rni>.

Maxmudova N. (2022) Ta‘lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali №3, may-iyun (№ 00059) 414-421 bb. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44\\_Makhmudova.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf)

Боймуродов А. Х. (2019) Педагогик таълим инновацион кластери асосида таълим туризмни ривожлантириш //ББК 26.8 Редакционная коллегия. – С. 42.

Денисова Д.А. (2015) Ретроспективный анализ развития понятия «образовательный туризм»// Вестник магистратуры №1-1 (40), стр. 102-105. Йошкар-Ола.

Зорин И. В., Кварталнов В. А. (2003) Энциклопедия туризма: Справочник. –М.: Финансы и статистика, 2003,33-б.

Ибрагимова М. И. (2021) Таълим туризми хизматларининг таркиби ва таснифланиши //Журнал инновации в экономике. – Т. 4. – №. 4.

Лебедев А.Р. (2012) Образовательный туризм как экономическая категория / Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. Ноб.

Лунин, Э.А. (2009) Совершенствование управления образовательным туризмом в РФ [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05) / Лунин Эдуард Андреевич; Санкт-Петербург. гос. ун. —Санкт-Петербург, —156 с.

Пономарева Т.В. (2015) Образовательный туризм: сущность, цели и основные сегменты потребителей. Материалы IV Международной научнойконференции “Проблемы современной экономики”. Челябинск: Два комсомолца, 158 с. С.139-142.

Саъдуллаева Г. (2020) Туризм хизматлари бозорида таълим туризми тушунчаси моhияти ва уни ривожлантиришининг хориж тажрибалари // Инновацион технологиялар. №2 (38). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-hizmatlari-bozoridatalim-turizmi-tushunchasi-mo-iyati-va-uni-rivozhlantirishning-horizh-tazhribalari>.

Соломин В.П., Погодина В.Л. (2007) Современное состояние и перспективы развития образовательного туризма в России // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Санкт-Петербург, №8 (30), стр. 96-112.

Титов В.П. (2016) Современный образовательный туризм в России: проблемы, тенденции и перспективы развития// Дизайн, технологии и инновации в текстильной и лёгкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2016) Сборник материалов международной научно-технической конференции. Московский государственный университет дизайна и технологии, стр. 287-292.

Muhammadsolih X., Sharipova S., Sobirova M., Toxtasinova Sh. (2022) Turizmning O‘zbekistonda tutgan o‘rni // SAI. №A5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmning-o-zbekistonda-tutgan-o-rni>

Farmon (2023) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.